Ibragimov Nodir Shopo'latovich, Ibragimov Qobil To'xtamishovich, Toshpo'latov Bobur Rasuljon o'g'li, Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi, Namozov DiyorbekBaxtiyor o'g'li	
Aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini takomillashtirish orqali investitsiya jozibadorligini oshirish mexanizmlari.....	858
Muxammadiyev Faxriddin Baxtiyorovich	
O'zbekiston respublikasi budget daromadlarining amaldagi holati tahlili.....	861
Shodiyev Xurshedjon Karimovich	
Korxonalarda ishlab chikarish strategiyasini innovasion faoliyati orqali takomillashtirish yo'llari	865
Fayzullayeva Aziza Nusratillayevna	
Budget tashkilotlarining shtat jadvallarini tuzish va xarajatlar smetasi	871
Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich	
Tax Revenues and Budget Allocation: The Impact of Tax Revenues on the Economy in Uzbekistan and Indonesia.....	875
Vafoyeva Sevinch, Umarova Zulaykho	
Erkin iqtisodiy zonalar – rivojlanishning muhim omili.....	879
Axtamova Parizod Oybek qizi	
The significance and impact of contemporary tourism infrastructure in boosting a country's tourism potential	883
Matkabbulova Diloram Khalilullayevna	
Tijorat banklari investitsiya faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.....	887
Abduvaliyev S.A.	
Yangi iqtisodiy tizimda barqaror ish bilan bandlik konsepsiyasini ishlab chiqish va unga oid global tajribalar.....	892
Xoliyorova Shoxista Qaxramon qizi	
Bo'lajak pedagog-o'qituvchining innovatsion faoliyati modeliga asoslangan xolda ta'lim-tarbiya metodlari va vazifalarinio'rgatish.....	898
Abdullaeva Sanobar Berdievna	
O'zbekiston to'qimachilik klasterlari orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash	903
Mansurov Saidxo'ja Kamalovich	



O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK KLASTERLARI ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH



Mansurov Saidxo'ja Kamalovich

“International school of finance technology and science” instituti
“menejment” kafedrası o'qituvchisi
“Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti”
tayanch doktranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz hududlarida paxta-to'qimachilik klasterlarining iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari hamda Respublikaning rivojlangan viloyatlarning boshqarish usulidagi ilg'or tajribalari va ularni boshqa viloyatlarda qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tayyor mahsulotlar, to'qimachilik klasterlari, transformasiya, xom ashyo, modernizatsiya, ip-kalava, gazlama, trikotaj mato, sanoat mahsulotlari, eksport hajmi, aylantirish mablag'lari, yarim tayyor mahsulotlar, investitsion muhit.

Abstract: This article presents the indicators of economic growth of cotton textile clusters in the regions of our country, as well as the best practices in the management of developed regions and their applications in other regions.

Key words: Finished products, textile clusters, transformation, raw materials, modernization, thread, yarn threading, knit fabric, industrial products, export volume, working capital, semi-finished products, investment environment.

Аннотация: В данной статье представлены показатели экономического роста хлопково-текстильных кластеров в регионах нашей страны, а также передовой опыт Республики по управлению развитыми регионами и их применение в других регионах.

Ключевые слова: Готовая продукция, текстильные кластеры, трансформация, сырье, модернизация, пряжа, газ, трикотаж, промышленная продукция, объем экспорта, оборотные средства, полуфабрикаты, инвестиционная среда.

KIRISH

Pahta sanoatini transformatsiya qilish jarayoni to'liq tugatilgandan so'ng, to'qimachilik klasterlarning qayta ishlashning to'liq zanjiriga va yuqori qo'shimcha qiymat hisoblangan tayyor mahsulotlarga qaratilgan strategik maqsadlar qo'yildi. Bu borada, mamlakatimiz Hukumati va Prezident tomonidan qabul qilingan ko'plab qaror va farmonlar negizida to'qimachilik klasterlarning chuqur qayta ishlashini rag'batlantirish hamda ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirilishida ko'plab imtiyozlar belgilab berilgan. Bularning pirovard maqsadi tayyor mahsulotlar ulushini oshirish va raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini mustahkamlash hamda ichki va tashqi bozorlarda sof raqobat muhitini shakllantirilishiga yo'naltirilgan. Ayniqsa, bu borada amalga oshirilgan ishlarning iqtisodiy samarasi Respublika viloyatlar kesimida namoyon bo'lib kelmoqda.

Ushbu yo'nalishda strategik maqsadlarni amalga oshirilishida Respublikaning barcha hududlarida faoliyat ko'rsatayotgan to'qimachilik klasterlarning tajribasini boshqa hududlarda ham joriy etish bo'yicha taklif va tavsiflar ishlab chiqish muhim jihatlardan hisoblanadi. Bu borada, ayniqsa iqtisodiy ko'rsatkichlari yuqori sanalgan Andijon, Namangan, Farg'ona, Toshkent shahri va Toshkent viloyatlarida faoliyat yuritib kelayotgan



iqtisodiy salohiyati yuqori hisoblangan to'qimachilik klasterlarining tajribalari boshqa viloyatlarga ham joriy etish masalasi muhim jihatlardan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

To'qimachilik klasterlarning iqtisodiy va eksport salohiyatini oshirishda olimlarning bir qancha takliflari ilgari surilgan. Mahalliy olimlarimizdan A.Soliev va Z.Xakimovlar maqolalarida "Klaster nazariyasi va uni amaliyotda qo'llayotgan mamlakatlar tajribasidan Namangan viloyatida foydalanish imkoniyatlari" keltirilgan.[1] Ushbu olimlarning aynan ushbu hududni tanlanishiga viloyatning tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmi yuqoriligidadir. A.Sh.Bekmurodov va Yang Song Be "O'zbekiston to'qimachilik sanoati strategiyasini rivojlantirishda klaster yondashuvi" [2] deb nomlangan monografiyasida klaster mohiyati va ularning raqobatbardoshligi, xorijiy mamlakatlar, kompaniyalar va mahsulotlar kesimida erishilgan natijalar misollar orqali ko'rsatilgan.

Amerika olimlari M.Porter "Raqobat uslubligi nazariyasi" [3], M.Enrayt, S.Rezenfeld, P.Maskell va M.Lorentzenlar "Mintaqaviy klasterlar kontseptsiyasi" [4], A.Marshall "Sanoat hududlar nazariyasi" [5], P.Bekatin "Italyan sanoat o'g'rug'lari nazariyalari"ni ilgari surishgan. [6] Yuqorida qayd etilgan xorij olimlarning nazariyalarida klasterlar bu raqobat ustunligini amalga oshirishda yuqori samara hisoblanib, ta'lim, fan, texnologik, iqtisodiy va boshqa xizmat ko'rsatuvchi subyektlar faoliyati bilan uyg'unlashgan tizimi ekanligi ta'kidlanadi. Klasterlar bilan bog'liq jarayonlar va hududlarni rivojlantirishda Rossiya olimlari Yu.S.Artomonova, B.B.Xurustalev [7] tomonidan o'rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Izlanish davomida iqtisodiy, statistik, qiyosiy tahlil, xronologik kuzatish va matematik usullardan foydalanildi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning mavzu doirasida chop etilgan ilmiy ishlaridan ham foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'kidlash lozimki, to'qimachilik sanoati dunyo miqyosida eng serdaromad va muhim yo'nalishlardan biridir. So'nggi yillardagi jahon iqtisodiyotidagi globallashuv jarayonlarining o'zgarishi Yevropa va AQShdan rivojlanayotgan Janubiy Amerika, Janubi-Sharqiy va Markaziy Osiyo mintaqalarga yetib keldi. Bu esa mamlakatimizda sanoatning muhim tarmoqlari hisoblangan to'qimachilik klasterlarining paxtani dastlabki ishlash, trikotaj va tikuvchilik kabi tuzilmalarni modernizatsiya qilish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etishni taqazo etadi.

Shu munosabat bilan, O'zbekiston paxtachilik sohasini rivojlantirishda Hukumat tomonidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xossatan, Prezidentimiz rahnamoligida ko'plab qaror va farmonlarning qabul qilinishining pirovard maqsadi ishlab chiqarilayotgan xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlarni paxta-to'qimachilik klasterlar tomonidan chuqur qayta ishlash natijasida tayyor mahsulot shakliga keltirish va ularni eksportga yo'naltirish hisoblanadi. Shunday ekan, Respublikaniing har bir hududida paxta-to'qimachilik klasterlar faoliyatini takomillashtirish strategik maqsadlardan sanaladi. Umuman olganda, mustaqillikning dastlabki yillaridan hozirgi davrgacha sohani rivojlanishi uchta bosqichni o'z ichiga qamrab oladi. Birinchisi, qishloq xo'jaligidagi paxtani dastlabki ishlash bosqichidagi jarayonlar, ikkinchisi, paxtani qayta ishlash bosqichidagi to'qimachilik fabrikalari va 2018-yildan paxtani chuqur qayta ishlashga mo'ljallangan klaster yondashuvidir.

So'nggi yillarda sohada amalga oshirilgan sifat o'zgarishlardan yana bir muhim jihati Respublikaning barcha hududlarida paxta yetishtirish maydonlari qisqartirilib, ulardan maksimal va intensiv usullardan foydalanishni taqazo etib kelmoqda. Bu amaliy harakatlarning barchasi Respublika hududlarda yuqori talablariga javob beradigan ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalangan holda qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqish asnosida yaxlit tizimni shakllanishi bilan bog'liqdir.

O'zbekistonda to'qimachilik sanoati rivojlanib borayotgan yetakchi sanoat tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Har yili mamlakatimizda ko'plab tadbirkorlik sub'ektlarning aynan ushbu sohada faoliyatlarini boshlashlari sohaning taraqqiy etishiga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan 7000 mingdan ortiq kichik va o'rta biznes vakillari to'qimachilik sohasida faoliyat yuritayotgan bo'lib, ushbu sohada band bo'lgan ishchi va xodimlar soni 500 mingdan oshadi.

Bunda paxta zavodlarini transformatsiya qilinishi va xom ashyo yetishtirishning intensiv usullaridan foydalanildi. Qo'shimcha zamonaviy agregatlar, traktorlar sotib olindi, paxta tozalash zavodlari modernizatsiya qilindi va zamonaviy yangi texnikalar bilan ta'minlandi. Natijada, klasterlar tasarrufiga o'tgan zavodlar tomonidan to'la ishlab chiqarish dinamikasi o'sish sur'atini kuzatishimiz mumkin.

So'nggi olti yillikda to'qimachilik sanoatida amalga oshirilgan ishlarning natijasida tarmoqning ishlab chiqarish quvvatlari ortib, ular tomonidan keng assortimentga ega bo'lgan ip-kalava, gazlama, trikotaj mato va ularni bo'yash-pardoshlash hamda tikuv mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan ko'plab korxonalar



tashkil etildi. Bugungi kunda Respublikaning barcha hududlarida to'qimachilik sanoatini rivojlanishi o'ziga xos uslubga ega. Geografik joylashuv nuqtai nazardan qaralsa, Respublikaning sharqiy qismlari Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlarida to'qimachilik sohasidan band bo'lgan tadbirkorlik subyektlari shu bilan birgalikda qayta ishlash darajasi yuqori hisoblanib, Respublikaning boshqa viloyatlarga nisbatan tayyor mahsulotlar ulushi hajmining yuqoriligi ushbu viloyatlar hissasiga to'g'ri keladi (1-jadval).

1-jadval. 2020–2024-yillarda pahta-to'qimachilik klasterlarining amaldagi narxlarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi. *mlrd. So'm.*

№	Viloyat nomi	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi		182,6	413,8	894,7	1154,3
2	Andijon viloyati	110,7	322,6	1113,8	1531,6	3009,4
3	Buxoro viloyati		293,2	1767,5	2433,6	2966,9
4	Jizzah viloyati	6,9	247,7	708,7	1384,6	1789,5
5	Qashqadaryo viloyati		241,7	496,4	1286,4	3290,4
6	Navoiy viloyati	281,7	558,4	732,5	1101,8	1134,5
7	Namangan viloyati		478,5	861,1	1121,5	1345,3
8	Samarqand viloyati	2,7	279,6	1168,4	1488,9	1796,1
9	Surxondaryo viloyati	56,7	378,6	789,5	1380,6	1756,9
10	Sirdaryo viloyati	338,2	369,5	566,6	744,7	1003,9
11	Toshkent viloyati		351,2	393,2	827,7	1060,7
12	Farg'ona viloyati	91,4	366,7	1144,3	2102,0	2767,2
13	Xorazm viloyati		301,2	895,4	1678,8	3010,0
14	Toshkent shahri		105,9	246,7	300,6	
Jami:		888,3	4477,4	12298,0	18277,5	26085,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik klasterlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2024-yilda 26085,1 mlrd. so'mni, 2020-yilga nisbatan o'sish tendentsiyasi 29 barabarni tashkil qilganligini ko'rsatadi. Viloyatlar kesimida Qashqadaryoda klasterlar soni va ishlab chiqarish hajmi jihatidan yuqori o'sish dinamikasiga erishilgan. 2024-yilda amaldagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 290,4 mlrd so'mni, 2021-yilga nisbatan o'sish sur'ati 13 barabarni tashkil qilgan. Shu bilan birga, Andijon, Buxoro, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida ham mahsulot ishlab chiqarish hajmi yuqori darajaga ko'tarilgan. 2020-yilda Qoraqalpog'iston, Buxoro, Qashqadaryo, Namangan, Toshkent viloyati, Xorazm va Toshkent shaharlarida klasterlarni moliyalashtirish va loyihalashtirish ishlari olib borilganligi sababli klasterlar faoliyati shakllanmagan.

2024-yil ma'lumotlariga tayanib, Jizzax viloyati klasterlar soni kamligi jihatidan Respublikada so'nggi pog'onani band etgan. Lekin viloyatda jami 4 ta klaster faoliyat ko'rsatganiga qaramay, ishlab chiqarish hajmi 1789,5 mlrd so'mni tashkil qilgan. Bu 9 ta klasterlarni mujassamlashtirgan Sirdaryo viloyatidan mahsulot ishlab chiqarish hajmi bo'yicha o'sish tendentsiyasi 178 foizni tashkil qilgan. Bular Jizzax viloyatini yuqori ishlab chiqarish samaradorligi bilan birgalikda iqtisodiy o'sishning intensiv yo'lida ekanligi bilan izohlanadi. Xuddi shunday vaziyat Navoiy viloyatida ham kuzatilgan. Viloyatda 4 ta klasterlar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1134,5 mlrd so'mni, Sirdaryo viloyatiga nisbatan o'sish sur'ati 113 foizni tashkil qilgan.

Bundan ham salbiy vaziyat, Qoraqalpog'istonda kuzatilgan. 2024-yilda hududning 11 to'qimachilik klasterlari tomonidan 1154,3 mlrd. so'mlik to'qimachilik mahsulot ishlab chiqarish amalga oshirilgan. Bu, eng past ko'rsatkich hisoblanib, klasterlarning ip-kalava, trikotaj mato va bo'yash, tikuv bo'linmalarida modernizatsiya ishlarini amalga oshirish, uskunalarini texnologik jihatdan yangilash hamda yuqori samaradorlikka ega innovatsion loyihalarni jalb etishni taqazo etadi.

2020–2024-yillarda Respublika to'qimachilik mahsulotlarining viloyatlar kesimidagi eksport hajmining o'sish dinamikasi keltirilgan. 2020-yilda klasterlar tashkil etilgandan buyon, 2024 yil yakuni bo'yicha umumiy eksport salohiyati 2020-yilga nisbatan deyarli 3 barobarga ko'paygan. Viloyatlar kesimida Andijon, Farg'ona, Namangan, Toshkent viloyati va Toshkent shahri hududlari yuqori hajmda eksportni amalga oshirgan. Ushbu viloyatlarning jami eksporti 2024-yilda 2127,7 mln.dollarni, Respublikadagi umumiy eksport ulushida 67,3 foizni tashkil qilgan.



Shubhasiz ularning barchasini eksport qilishga jalb qilish imkonsiz bo'lishi mumkin. Bunga sabab, ayrim korxonalarning yangi tashkil etilganligi va yakuniy bosqich tsiklida modernizatsiya ishlari olib borilayotganligi yoki eksport faoliyatini amalga oshirishda yetarli miqdorda aylanma mablag'lar yetishmasligi hamda bozorlarni egallashda marketing xizmatlari yetarlicha tashkil etilmaganligi va boshqalar ta'sir etishi mumkin. Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida tikuvchilik, chevarchilik va hunarmandchilik kasblari boshqa viloyatlarga nisbatan sezilarli ravishda rivojlangan. Misol uchun: Andijon va Namangan viloyatlarda joylashgan kichik to'qimachilik korxonalari yoki uy sharoitida oilaviy tadbirkorlikni yo'lga qo'ygan korxonalar asosan kooperatsiya uslubida ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanib kelishadi.

Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlarida joylashgan yirik korxonalar yoki paxta-to'qimachilik klasterlar (to'liq zanjirga ega bo'lganlar mustasno) tomonidan chet el hamkorlaridan kelayotgan buyurtmalarning ko'pligi sababli, eksport shartnomalarini to'liq, sifatli va o'z vaqtida bajarilishini hisobga olib, ular yarim tayyor mahsulotlarni qayta ishlash jarayoni sifatida kichik biznes vakillariga tegirmon usulida yetkazib berish xizmati amalga oshiriladi. Ayrim to'qimachilik klasterlarida esa qayta ishlash zanjirining to'liq yo'lga qo'yilmaganligi tufayli boshqa to'qimachilik korxonalariga yetkazib berishga majbur bo'lishmoqda. Bu ham qaydidir ma'noda ijobiy baholanadi chunki vaqtincha to'xtab qolgan korxonalarda ishchi o'rinlari saqlanib qolib, korxona faoliyati davom ettiriladi. Bu esa nafaqat iqtisodiyotga balki aholining bandlik va turmush tarzining farovonligiga olib keladi.

Yuqaridagilarning isboti sifatida, 2024-yilning 11 oyida O'zbekiston xorijiy mamlakatlarga 1,1 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lgan eng ko'p tayyor raqobatbardosh mahsulotlarning Rossiya, Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston, Belarusiya, Turkiya va Germaniya davlatlariga eksporti to'qimachilik korxonalari va paxta-to'qimachilik klasterlar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkichlarning 514,9 mln. dollari (yoki 47%) aynan Andijon viloyati (338,7 mln.dollar) va Namangan viloyati (176,2 mln.dollar) hissalariga to'g'ri kelgan.

Endi Toshkent viloyati va Toshkent shahriga to'xtalsak, ushbu hududlar eksport ko'rsatkichlari bo'yicha qo'shayotgan salmoqli ulushi bilan boshqa viloyatlarga nisbatan ajralib turadi. Bunda qulay investitsion muhit va infratuzilmaning mavjudligi investorlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri investitsiya jalb etilishining ko'payishiga olib keladi. Toshkent shahrida va Toshkent viloyatida asosan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tikuv korxonalari boshqa turdagi to'qimachilik korxonalariga nisbatan ko'pchilikni tashkil qilganligi hamda mahalliy tadbirkorlar tomonidan xorijiy bozorlarga chiqishda marketing xizmatlari bo'yicha yetarlicha bilim ko'nikmalari mavjudligi hududlarning eksport salohiyatini oshirilishiga turtki bermoqda.

Respublikada muntazam ravishda to'qimachilik mahsulotlarini katta hajmlarda eksportni amalga oshirib kelayotgan Andijon viloyatiga to'xtalsak. Ushbu viloyat eksport hajmi bo'yicha 2024-yilda Viloyatlar miqyosida 18,6 foiz ulushiga ega bo'lgan. Andijonni shunday natija qayd etilishiga tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar soni ko'pligi hamda to'qimachilik klasterlarining qayta ishlash zanjiridan to'liq quvvatda foydalanishi bilan izohlanadi (1-rasm).




1-rasm. 2024-yilda Andijon viloyati to'qimachilik mahsulotlarining eksport nomenklaturasi.

Manba: Muallif tomonidan tayyorlandi.



Yuqorida qayd etilgan diagramma ma'lumotlariga binoan, Andijon to'qimachilik mahsulotlari 2024-yildagi eksport nomenklaturasi keltirilgan. Unda viloyatning jami eksport salohiyati 585,3 mln. dollarni tashkil qilgan. Shundan, viloyatning tayyor mahsulotlar eksporti 343,9 mln.dollarni yoki 58,7 foizni qayd etgan. Bu Respublika miqyosida tayyor mahsulotlar eksport qilish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Andijon viloyati ilgari trikotaj tarmog'i shu jumladan, mayka, futbolkalalar va turli xil assortimenti kiyim-kechak mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo'yicha boshqa viloyatlarga nisbatan keng ommalashganligini yaqqol namunasidir.

Shu sababli, eksport tarkibining asosiy qismi trikotaj mahsulotlari egallagan. Respublika-da 2024-yilda eksport qilishda yuqori ko'rsatkichlar qayd etgan Andijon, Namangan, Farg'ona, Toshkent viloyati va Toshkent shaharlarning eksport nomenklaturasi quyidagi dinamikada keltirilgan (2-rasm).



2-rasm. 2024-yilda yuqori ko'rsatkich qayd etgan viloyatlarning mahsulotlar kesimida eksportining o'sish dinamikasi.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2-rasmda Andijon, Farg'ona, Namangan, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahar hududlari hamda ushbu hududlar tomonidan amalga oshirilgan to'qimachilik mahsulotlarning eksport nomenklaturasi keltirilgan. Ma'lumotlardan ma'lum bo'ladi, mahsulotlarning eksport tarkibini o'ziga xos ravishda xom ashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlarga bo'lib tahlil qilish mantqan joiz deb hisoblaymiz. Farg'ona viloyatida xom ashyo hisoblangan ip-kalava eksporti boshqa turdagi to'qimachilik mahsulotlariga va boshqa viloyatlarga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichni qayd etgan. Shuningdek, Toshkent shahrida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish ko'rsatkichi boshqa turdagi mahsulotlarga qaraganda nisbatan past. Ushbu hududda asosan, ip-kalava va trikotaj mato eksporti yuqoriligicha qolgan. Iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichi tendentsiyasi Andijon viloyatiga to'g'ri keladi. Bu yerda tayyor mahsulotlar eksportining ulushi boshqa turdagi xom ashyo mahsulotlarga nisbatan uch-to'rt barobar katta ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Shuningdek, Namangan va Toshkent viloyatlarida xom ashyo mahsulotlari eksporti bosqichma-bosqich kamaytirilib, tayyor mahsulotlar ulushi ko'payib borayotganligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, ip-kalava eksporti Respublika miqyosida bosqichma-bosqich cheklab boriladi. Bu o'rinda to'qimachilik eksportiga doir qabul qilingan va amalda qo'llanilib kelinayotgan Hukumat qarorlari va farmonlar ishlab chiqarishning yakuniy bosqichi hisoblangan tayyor mahsulotlarga berilayotgan imtiyozlarni ifodalaydi. Shu bilan birgalikda, xorijiy davlatlar bilan savdo iqtisodiy munosabatlarni rivojlanishi va jahon bozorlariga eksport qilishda diversifikatsiyasini kengayishiga turtki bo'ladi. Misol tariqasida AQSh va Yevropa bozorlariga kirishda "Cotton Campaign" xalqaro koalitsiya tomonidan mahalliy paxtamizdan bo'lgan tayyor mahsulotlarni sotib olishga bo'lgan ta'qiq olib tashlanishi bugungi kungacha, mahalliy tadbirkorlarimiz tomonidan organik paxtadan bo'lgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga bo'lgan motivatsiya ortishiga hamda yangi bozorlarga kirib borilishiga qaratilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Paxta sanoatini transformatsiyalash va to'qimachilik sanoatini klasterlashtirish jarayoni so'nggi besh yillikda Respublika viloyatlarini iqtisodiy rivojlanishiga turtki bo'ldi. Bu borada, ishlab chiqarish va eksport salohiyati yuqori hisoblangan hududlar tajribalarini boshqa viloyatlarda amaliyotga joriy etish lozim bo'ladi. Ayniqsa, Namangan, Andijon, Farg'ona viloyatlarida ilgari shakllangan kasb egalari hisoblangan tikuvchilik va chevarchilik sohalarida yetuk tajriba mavjudligi va ishlab chiqarish samaradorligi yuqoriligi hamda tayyor mahsulotlarga ixtisoslashgan korxonalar soni ko'pligini inobatga olsak, boshqa viloyatlarga ham aynan shunday boshqaruv jarayonini amalga oshirishni taqozo etadi.

Shu bilan birgalikda, to'qimachilik sanoati rivojlangan hududlarning boshqa viloyatlarda tadbirkorlik salohiyati va hududlarning eksport salohiyatini oshirishda tayyor mahsulot ishlab chiqarishda kooperatsion metodlarni qo'llashni joriy qilish. Bular vaqtincha ishlab chiqarish faoliyatini tugatgan yoki bankrot holatiga tushib qolgan korxonalarni qayta tiklanishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Soliev va Z.Xakimovlar "Klastar nazariyasi va uni amaliyotda qo'llayotgan mamlakatlar tajribasidan Namangan viloyatida foydalanish imkoniyatlari" "Biznes-ekspert" jurnali 2014 yil 1-son, 52-57 bet.
2. A.Sh.Bekmurodov va Yang Song Be "O'zbekiston to'qimachilik sanoati strategiyasini rivojlantirishda klaster yondashuvi". Monografiya, 2006 yil, 112 bet.
3. Портер М.Международная конкуренция. –М.: Международные отношения, 1993. С.51.
4. Enright, M (1996) "Regional Clusters and Economic Development: A Research Agenda", in Staber, U., Schaefer, N. And Sharma, B, (Eds). "Business Networks: Prospects for Regional Development, Berlin". Walter de Gruyter, p.190-213.
5. Маршалл А. Принципы экономической науки, I-III. Пер. с англ.- М.-Издательская группа "Прогресс", 1993.
6. П.Бегаттин- Becattini G. From Marshalls to the Italian "Industrial Districts"/ www.competitiveness.org
7. Кластерные политики и кластерные инициативы: теория, методология, практика. (Коллективная монография). Минобразования и науки РФ, Минэкономразвития РФ, Правительство Пензенской области. Пенза-2013.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
